

# Zamonaviy pedagogik mahoratning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati

Azimaxon Odiljon-qizi Kamolova  
Nilufar Nazirjon-qizi Nasirova  
nilufarnasirova262@gmail.com  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik mahorat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, mohiyati va bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Pedagogik texnika, nutq madaniyati va innovatsion yondashuvlarning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, mimika, pantomimika, kreativlik, kompetensiya

## Importance of modern pedagogical skills in professional activity

Azimaxon Odiljon-kizi Kamolova  
Nilufar Nazirjon-kizi Nasirova  
nilufarnasirova262@gmail.com  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article analyzes the concept of pedagogical mastery, its components, essence, and its role in improving the quality of education today. The importance of pedagogical technique, speech culture, and innovative approaches in a teacher's professional activity is highlighted.

**Keywords:** pedagogical mastery, pedagogical technique, pedagogical ability, mimicry, pantomime, creativity, competence

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi ta'lim tizimi oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida "Uchinchi renessans" poydevorini yaratishda asosiy yuk pedagoglar zimmasiga tushadi. Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirishimiz mumkin: "Biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur

anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", deydi Shavkat Mirziyoyev.<sup>1</sup>

Pedagogik mahorat - bu shunchaki dars berish uslubi emas, balki o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, psixologik tayyorgarligi va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtira olish san'atidir.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, an'anaviy ta'limdan raqamli va innovatsion ta'limga o'tish jarayonida pedagogning "bilim beruvchlik" roli "yo'naltiruvchilik" roli o'zgarimoqda. Bu esa pedagogdan yangi turdagi mahorat shakllarini egallashni talab etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. Pedagogik mahorat o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda davr talablari asosida yangi, zamonaviy texnologiyalarni izlab topib uni amaliyotga tadbiiq qila oladigan, har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.<sup>2</sup>

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi;
- pedagogik iste'dod va qobiliyat;
- pedagogik texnika(san'at);
- o'qituvchining shaxsiy intilishi.

O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi - o'qituvchining har bir o'quvchiga hurmat bilan, mehr va e'tibor bilan yondashishini anglatadi. O'quvchini shaxs sifatida qadrlash, uning fikrini tinglash va tushunishga harakat qilish, adolatli va mehribon bo'lish, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish. Insonparvar o'qituvchi sinfda ijobiy muhit yaratadi, bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Har bir insonda u yoki bu kasbga nisbatan qobiliyat mavjud bo'ladi. F.Gonobolin, N.Kuzmina kabi taniqli ruhshunoslarning fikricha, pedagoglik kasbi uchun 6 xil qobiliyat muhim hisoblanadi. Ular pedagogning o'rta tusha bilishi, tashkilotchiligi,

<sup>1</sup> <https://share.google/uoE5wu4LczsDtYARi>

<sup>2</sup> Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

o'zini idora eta bilishi, kuchlilik va zehniligi, faoliyatga ijodiy tomondan yondashishi hisoblanadi.<sup>3</sup>

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmui hisoblanadi. Pedagogik texnikaning muhim jihatlariga pedagogning o'z fikrini aniq, ravon va ifodali tilda yetkazib bera olishi, ichki his - tuyg'ularini nazorat qilishi, yuz ifodalari (mimika) hamda tana harakatlari (pantomimika) orqali o'quvchi bilan aloqa o'rnatish, ma'noli qarashlar, o'rinli tabassum va so'zning kuchi bilan o'quvchi ongiga yetib borishi, hozirjavoblari kiritiladi.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy intilishi muhim o'rin egallaydi. Shaxsiy intilish deganda o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan ichki qiziqishi, o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji va doimiy ravishda rivojlanishga intilishi tushuniladi. Zamon o'zgarib borar ekan, ta'lim usullari ham yangilanadi. Shuning uchun pedagog yangi metodlarni o'rganib, ularni dars jarayonida qo'llashga harakat qilishi kerak.<sup>4</sup>

Zamonaviy pedagogik mahorat o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Ta'lim sifatining samaradorligini oshishi, ya'ni mahoratli pedagog murakkab mavzularni oddiy va tushunarli tilda yetkazib bera oladi. Bu o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichini bir necha barobar oshiradi. Pedagogik mahorat darsni zerikarli ma'ruzadan jonli muloqotga aylantiradi, natijada bolalarda darsga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. O'qituvchi interfaol metodlar orqali o'quvchining ichki imkoniyatlarini kashf etadi. Maktab muhitida turli xarakterdagi o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik takt va psixologik mahorat juda muhim. Bu o'qituvchiga darsdagi intizomni saqlash va nizolarni ijobiy hal etishga yordam beradi. O'z ustida ishlaydigan, zamon bilan hamnafas pedagog ota-onalar va jamoa orasida yuksak hurmatga ega bo'ladi. Bu esa uning kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagogik mahorat tushunchasi raqamli savodxonlik bilan ham uzviy bog'liq. Faqat darslik bilan cheklanib qolgan o'qituvchi zamonaviy avlod talablariga javob bera olmaydi. Shu sababli axborot texnologiyalaridan foydalana olish, kreativ fikrlash va darsni loyiha asosida tashkil etish, masofaviy ta'lim sharoitida ham auditoriyani ushlab turish mahorati eng dolzarb masalalardir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. U ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim darajasi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagog doimo izlanishda bo'lishi, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi zarur. Faqat shundagina u jamiyat talablariga javob beradigan,

<sup>3</sup> B.Raximov., N.N.Narziyeva. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston: "SamDCHTI" nashriyoti. 154 bet.

<sup>4</sup> B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.— T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

raqobatbardosh avlodni tarbiyalay oladi. Har bir davrning o'z talablari bor, biroq barcha davrlarda ham yuksak mahoratli, o'z kasbiga sadoqatli va doimiy izlanishdagi pedagog jamiyatning ma'naviy-intellektual poydevori bo'lib qolaveradi. Pedagogik mahoratni muntazam ravishda oshirib borish - bu faqatgina kasbiy majburiyat emas, balki kelajak avlod oldidagi ma'naviy mas'uliyatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
2. B.Raximov., N.N.Narziyeva. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston: "SamDCHTI" nashriyoti. 154 bet.
3. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.— T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
4. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.